

PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA DUAL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING METODIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Niyazov Akmal Erkinovich
Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti

Annotatsiya: Professional ta'lim muassasalarida jahon andozalariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash ko'p jihatdan professional ta'limida zamonaviy ta'lim tendensiyalarini joriy etilishiga bog'liqdir. O'z navbatida bu o'quv jarayonini ilg'or pedagogik texnologiyalar talabi asosida tashkil qilish orqali amalga oshirilishini taqozo qiladi. Bu esa ta'lim jarayonini bozor iqtisodiyoti talablarini inobatga olgan holda tashkil etish, unga tegishli o'qitish texnologiyalarni joriy qilish, ta'lim mazmunini doimiy ravishda yangilab borishga qaratilgan metodik ta'minotni takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi. Ushbu maqolada mamlakatimizda professional ta'lim tizimida dual ta'limning o'rni haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Dual ta'lim, tamoyillar, modellar, oliy ta'lim, farmon, axborotlar texnologiyalari.

Zamonaviy hayotni bugun ilm-marifat va ta'lim taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Insoniyat fan o'qi atrofida aylanayotgandek go'yo. Jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir. Bugungi kunda universitetlarning ta'lim berish faoliyati yanada takomillashtirib, xalqimizning asrlar davomida shakllangan ilm sari intilish fazilati yana bir bor namoyon bo'lmoqda. Yoshlarimiz sog'lom hamda go'zal turmush kechirish, egallagan kasbi bo'yicha doimiy ish o'rniga ega bo'lish, ma'suliyatni o'z zimmasiga olish, insoniy qadr-qimmatini kamsitishga yo'l qo'ymaslik, qisqacha aytganda, komillikka erishish uchun harakat qilyapti va bu jarayonda ta'lim olishni eng asosiy sharti sifatida ko'rmoqda. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga tutgan o'rni uning ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish ma'naviy madaniy taraqqiyoti uzliksiz ta'lim tizimining istiqboli va ahamiyatga bog'liq. Ta'lim





jamiyatning ma'naviyat hayoti va iqtisodiyotinin rivojlantiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Ta'lim taraqqiyoti esa uzliksiz ta'limi tizimida ta'sil olayotgan o'quvchilar ta'lim mazmunini o'zlashtirish darajasiga bog'liqdir.

Bugungi kunda kasb va lavozimlar klassifikatorida 9145 ta mutaxassislik mavjud bo'lib, ulardan 6282 tasi bo'yicha o'rta maxsus malaka darajasi talab etiladi. Ayniqsa respublikamining barcha jabhalarida qurilish, yengil sanoat, metalga ishlov berish, qishloq xo'jaligi mexanizatsiyasi, aholiga xizmat ko'rsatish va boshqa sohalar bo'yicha kichik o'rta bo'g'in mutaxassislariga hozirgi vaqtda juda katta ehtiyoj mavjudligi hech kimga sir emas. Ushbu yo'nalishda respublikada yangi professional ta'lim tizimi faoliyatini yo'lga qo'yish, o'rta bo'g'in mutaxassislar va ishchi kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlashning samarali mexanizmlarini shakllantirish maqsadi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019 yil 6 sentyabrdagi PF-5812-farmoni qabul qilindi. Bunda o'rta maxsus bo'g'inda tahsil olgan har bir kadrda, o'z-o'zini rivojlantirish, shaxsning o'zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo'lida aniq maqsad va puxta o'ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishi asosiy maqsad qilib qo'yildi.


Hozirgi davrda o'qitishning dual shakli nazariy va ishlab chiqarish, amaliy mashg'ulotlar bir vaqtning o'zida amalga oshiriladigan dunyodagi professional va texnik kadrlar tayyorlashning eng samarali shakllaridan biridir. Bu o'quvchilarning kasbiy ta'limida korxonalarining bevosita ishtirokini o'z ichiga oladi. Korxonada amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun sharoitlar yaratilgan va o'quvchilar uchun har oylik to'lovlarni hisobga olgan holda barcha xarajatlar qoplanadi. Ta'lim muassasalari korxonalar bilan teng asosda hamkorlik qiladi. Dual ta'lim tizimi – ixtisoslashgan ta'lim turi bo'lib, talaba nazariy bilimlarni ta'lim muassasasida, amaliy ko'nikmalarini esa bevosita ish joyida, ya'ni tashkilotda olish imkoniyatini yaratib beradi. Dual ta'limining asosiy maqsadi ta'lim muassasasi va ish beruvchilarning sa'y-harakatlari amaliy mashg'ulotlarning asosiy omili sifatida birlashtirib, talabalarning kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishdan iborat.





Ma'lumot o'rnida qayd etish joizki, Dual talim-talim dasturining nazariy, o'quv-amaliy qismi professional talim muassasasida, malaka hamda kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha ishlab chiqarish bilan bog'liq amaliy qism korxonada (tashkilot)da tashkil etiladigan o'qitish turi hisoblanadi. Dual ta'limni tashkil etish uchun hokimliklar va manfaatdor vazirliklar tomonidan o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan ehtiyoj aniqlanadi va taklif tayyorlanadi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi har yili 1 iyulgacha dual ta'lim bo'yicha kadrlar tayyorlanadigan ta'lim muassasalarini belgilaydi. Tanlangan ta'lim muassasalari belgilangan kvotalar bo'yicha o'quvchilarni qabul qiladi. Ta'lim muassasalari kadrlarga ehtiyoji bo'lgan tashkilotlar bilan shartnoma tuzadi. Shartnoma tashkilot va o'quvchi o'rtasida ham tuziladi. Bunda o'quvchi uchun tashkilotda muayyan ish o'rni ajratiladi. O'quvchilar bir haftada kamida ikki kun ta'lim oladi qolgan kunlar ishlaydi. O'quvchiga ishlagan kunlari uchun haq to'lanadi. Malumot o'rnida qayd etish joizki, Dual talim-talim dasturining nazariy, o'quv-amaliy qismi professional talim muassasasida, malaka hamda kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha ishlab chiqarish bilan bog'liq amaliy qism korxonada (tashkilot)da tashkil etiladigan o'qitish turi hisoblanadi. Dual ta'limni tashkil etish uchun hokimliklar va manfaatdor vazirliklar tomonidan o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan ehtiyoj aniqlanadi va taklif tayyorlanadi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi har yili 1 iyulgacha dual ta'lim bo'yicha kadrlar tayyorlanadigan ta'lim muassasalarini belgilaydi. Tanlangan ta'lim muassasalari belgilangan kvotalar bo'yicha o'quvchilarni qabul qiladi. Ta'lim muassasalari kadrlarga ehtiyoji bo'lgan tashkilotlar bilan shartnoma tuzadi. Shartnoma tashkilot va o'quvchi o'rtasida ham tuziladi. Bunda o'quvchi uchun tashkilotda muayyan ish o'rni ajratiladi. O'quvchilar bir haftada kamida ikki kun ta'lim oladi qolgan kunlar ishlaydi. O'quvchiga ishlagan kunlari uchun haq to'lanadi.

Bizning fikrimizcha o'quvchilar o'qitishning dual ta'lim shaklida biror bir kasb yoki mutaxassislikni o'rganishda mustaqil o'zlashtirish imkoniga ega bo'lish hamda ustozlarning ta'lim va tarbiyalarini olish uchun ajoyib imkoniyatdir. Dual ta'lim tizimi - bu professional ta'limning tarixan yig'ilib kelingan shakli bo'lib, Evropaning siyosiy, iqtisodiy, diniy va texnologik tarixiga kirib kelgan. Bugungi kunda ushbu ta'lim tizimi Germaniya, Avstriya, Daniya, Gollandiya, Shveysariyada muvaffaqiyatli





qo'llanilmoqda. Ikkilamchi ta'lim-bu xodimlarni aniq "buyurtma asosida" tayyorlash, ularning barcha talablariga maksimal darajada muvofiqligini ta'minlash, ishchi-xodimlarni topish va tanlash, ularni qayta tayyorlash va moslashtirish xarajatlarini tejashga olib keladi. Bundan tashqari, eng yaxshi bitiruvchilarni tanlash imkoniyati mavjud, chunki amaliy mashg'ulotlar davrida ularning kuchli va zaif tomonlari L. V. Sidikovoy [4] fikriga ko'ra, aniq ko'rinadi. O'z navbatida, ushbu yondashuv talabalarni tekshirish uchun emas, balki o'rganishga imkon beradi. Yosh mutaxassislariga korxonalar faoliyatini yaxshi o'rganish imkoniyati ega bo'ladi. Bularning barchasi birgalikda xodimlarni mustahkamlash va xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi. Bizningcha zamonaviy texnologiyaning o'ziga xos xususiyati shundaki, hech qanday nazariya, biron bir kasbning ishlab chiqarish siklini qamrab olmaydi. Yuqori texnologiyalarning murakkab tashkil etilishi oldingi kasblarning ish sikllarining faqat bir yoki ikkita katta bosqichini ta'minlashiga olib keladi va insonning muvaffaqiyatli ishlashi, o'sishi uchun nafaqat professional bo'lish, balki ushbu sikllarda faol va to'g'ri ishtirok etish muhim hisoblanadi. Malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishda, agar mas'uliyatning bir qismini biznes hamjamiyati vakillari zimmasiga olgan bo'lsa, erishish mumkin. Shu bilan birga, davlat, ish beruvchilar va o'quv yurtlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning qo'shma zo'nasini yaratish kerak. Ta'lim muassasalarida o'rnatilgan intizom ta'lim muassasalari jamoasini jipslashtirish, ta'lim muassasasi ichki hayoti va faoliyatining mo'tadil kechishini ta'minlaydi. Intizom o'quvchilardan hamjihatlik asosida faoliyat olib borish, o'quv yurti manfaati uchun birgalikda kurashish, rahbariyat hamda vakolatli o'quvchilar organlari, uning a'zolari talabalarni to'g'ri talqin etish va ularning bajarilishini talab etadi. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki yoshlarimizni to'g'ri kasbga yo'naltirish, bu eng muhim vazifalardan biri ekanligini yana bir bor ta'kidlab o'tmoqchiman. Inson to'g'ri kasb tanlash orqali o'z oilasiga, jamiyatga juda katta naf keltirishi isbot talab qilmaydigan qonuniyatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Электр токидан жароҳатланиш ва унинг инсон организмига таъсири
СМ Мардонова PROBLEMS OF BIOLOGY AND MEDICINE БИОЛОГИЯ
ВА ТИББИЁТ МУАММОЛАРИ 5, 2021





2. Mardonova, S. (2022). ЭФФЕКТИВНОСТЬ СОЗДАНИЯ И ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ УЧЕБНЫХ КУРСОВ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 8(8). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4431

3. Соғлом авлодни тарбиялашда оилада соғлом мухитни яратиш

СМ Мардонова Профессионал таълим муассасаларида дуал таълимни ташкил этишининг замонавий муаммолари, 2021

4. Inson salomatligiga zararli omillarning ta'siri va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarziga qo'yiladigan talablardan keng foydalanish M.S.Muzaffarovna Ilmiy jurnali" Magistratura dasturining axborotnomasi 111, 2020 yil

